



ISSUES OF SUPPLYING THE POPULATION WITH FOOD PRODUCTS IN UZBEKISTAN

U.K. Khudoykulov

*Candidate of Technical Sciences, Associate Professor
National University of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: food security, agriculture, socio-economic and political stability, fruits, grapes, vegetables, melons, cereals, UN, ЖССТ, УЗР ССВ.

Received: 19.10.25

Accepted: 20.10.25

Published: 21.10.25

Abstract: Food in Uzbekistan in this article - ensuring food security since the first years of our republic's independence, in order to ensure the country's food security, a strategy has been implemented aimed at revising and improving the structure of crops based on fundamental agrarian reforms, as well as ensuring food security based on access to safe food necessary for people to be active and healthy lifestyle. the state in which a sufficient amount can be achieved, including the implementation of a program aimed at consolidating the independence of grain in our country, has acquired great socio-economic and political importance.

O'ZBEKISTONDA AHOLINI OZIQ – OVQAT MAHSULOTLARI BILAN TA'MINLASH MASALALARI

U.K. Xudoyqulov

*t.f.n., dotsent
O'zbekiston Milliy universiteti
Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Oziq- ovqat xavfsizligi qishloq xujaligi, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorlik, mevalar uzum, sabzavot mahsulotlari, poliz ekinlari, don mahsulotlari, BMT, JSST, O'zR SSV, Qishloq xo'jaligidagi islohotlari.

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda oziq- ovqat xavfsizligi mahsulotlari bilan taminlash, O'zbekistonda Meva-sabzavotchilik quyi tarmog'i O'zbekiston qishloq xo'jaligining muhim tarmog'iga asoslanganligi. Bu tarmoq mamlakat aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga, qayta ishlash sanoati

tarmoqlarining esa xomashyoga bo'lgan talabini qondirish. Meva-sabzavotchilik O'zbekiston uchun jahon agrar va oziq-ovqat bozorlariga integratsiyalashuvni va valyuta tushumini ta'minlab beruvchi tarmoqlardan biri hisoblanishi. Keyingi yillarda respublikamizda meva-sabzavotchilikni keng ko'lamda rivojlantirishga davlat tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonda aholini eng muhim qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlashni yaxshilash asosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun sa'yohatlar O'zbekistonning birinchi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan mustaqillikka erishishdan oldin boshlandi.

ВОПРОСЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ ПРОДУКТАМИ ПИТАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

У.К. Худойкулов

Кандидат технических наук, доцент

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые	слова:	Аннотация:
Продовольственная безопасность сельское хозяйство, социально - экономическая и политическая стабильность, фрукты виноград, овощи, бахчевые культуры, зерновые, ООН, ЖССТ, УзР ССВ, сельское хозяйство.	этой статье- обеспечение продовольственной безопасности с первых лет обретения нашей республикой независимости в целях обеспечения продовольственной безопасности страны была реализована стратегия, направленная на пересмотр и совершенствование структуры сельскохозяйственных культур на основе коренных аграрных реформ, а также обеспечение продовольственной безопасности на основе доступа к безопасным продуктам питания, необходимым людям для активного и здорового образа жизни. состояние, при котором может быть достигнуто достаточное количество, в том числе, реализация программы, направленной на закрепление независимости зерна в нашей стране, приобрела большую социально-экономическую и политическую значимость.	Еда в Узбекистане в

Kirish. O'zbekistonda aholini eng muhim qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlashni yaxshilash asosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun sa'yohatlar O'zbekistonning

birinchi Prezindti I.A.Karimov tashabbusi bilan mustaqillikka erishishdan oldin boshlandi. Mamlakatimizda qishloq xo'jaligida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish orqali aholini eng muhim oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashni yaxshilash, aholi turmush darajasining keskin pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun 1989 yil 17 avgustda Islom Karimov boshchiligidagi respublika hukumatining yig'ilishida «Qishloqda yashovchi har bir oilani tomorqa bilan ta'minlash, ularga yakka tartibda uy-joy qurish uchun barcha shartsharoitlarni yaratib berish haqida» qaror qabul qilinadi. Qishloqda yashovchi har bir kishiga o'rtacha 25 sotixdan yer ajratib berish va tomorqa maydonlarini qariyb 4,5 barobar ko'paytirish ko'zda tutilgan edi. Ushbu qarorning ijro etilishi natijasida 1989-1990 yillarda 1,5 milliondan ko'proq oilaga qo'shimcha yer ajratildi. 700 ming oilaga yangi tomorqa yerlari berildi. Shu bilan birga paxta yetishtirish plani 700 ming tonnaga kamaytirildi[1]. Bu paxta yakkaxokimligini bartaraf etish yo'lidagi dastlabki, ammo o'ta muhim amaliy qadam edi. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun ikki yo'nalishda chora-tadbirlar amalga oshirildi:

- qishloq aholisi tomorqa maydonlarini kengaytirish va yangilarini ajratib berish;
- qishloq xo'jaligi ekinlari tarkibini qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish kerak bo'ldi.

Oziq-ovqat xavfsizligi — aholining barcha qatlamlarini sog'lom va faol hayot kechirishlari uchun jismoniy, ijtimoiy, iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ularning iste'mol ehtiyojlarini to'liq qoplash, xavfsizlik ko'rsatkich meyorlariga muvofiqligini ta'minlash, yuqori ozuqaviy qiymatga ega oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish sharoitlarini kafolatlovchi holatidir.

Tadqiqotning asosiy natijalari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, «Qishloq xo'jaligidagi islohotlardan maqsad -iqtisodiy foyda ko'rish bilan birga, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, xalq farovonligini oshirishdan iboratdir. Buni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz zarur» [2]. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash O'zbekistonning mustaqilligini, mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni ta'minlashning garovi hisoblanadi. Yer yuzida iqlim o'zgarishining natijasida yuz berayotgan tabiiy ofatlar, yerlarni sug'orish uchun suv tanqisligi, qurg'oqchilik kabi vaziyatlar oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni qiyinlashtirmoqda. Oqibatda dunyo oziq-ovqat bozorlarida narx-navo ko'tarilib bormoqda. Shuningdek, 2008 yilda boshlanib, hamon davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi mazkur muammoning keskin tus olishiga sabab bo'lmoqda. Jahonning 54 mamlakatida oilalarning moddiy ahvoli darajasining pasayishi kuzatilgani, 20dan ziyod davlat aholisining asosiy qismi ochlikdan qiynalayotgani, 12 ta mamlakatda aholining o'rtacha umr ko'rishi qisqargani, so'ngi yillarda dunyo aholisining 840 milliondan ortig'i ochlikdan aziyat chekayotganligi buning yaqqol dalilidir[3]. Shuning uchun ham butun dunyoda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalariga juda katta ahamiyat beriladi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligi muhim o'rin

tutadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisida qilgan nutqida "Qishloq xo'jaligini isloh qilish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalari, hech shubhasiz, biz uchun eng muhim vazifalardan biri bo'lib qoladi. Eng avvalo, agrosanoat kompleksi va uning lokomotivi, ya'ni harakatga keltiruvchi kuchi bo'lgan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini izchil rivojlantirishga katta e'tibor qaratiladi"[4] deb ta'kidlagan.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab oziq-ovqat xavfsizligi masalalari O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida markaziy o'rinlardan birida turadi. Endilikda aholi turmush farovonligini va sifatini yanada oshirish, aholini oziq-ovqat bilan to'laqonli ta'minlash masalalari oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash muammosi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu boisdan, O'zbekistonda oziq-ovqat dasturini amalga oshirish asosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda ustuvor yo'nalishlarini ilmiy tahlili asosida oziq-ovqat xavfsizligining nazariy va amaliy masalalarini hal qilish hamda uning jamiyat taraqqiyotidagi, insoniyatning turmush farovonlikdagi rolini asoslashga turli MDH olimlaridan D.V.Zerakalov tomonidan "Oziq-ovqat xavfsizligi" monografiyasida oziq-ovqat xavfsizligi masalalari jahon tarixiy jarayonlarida ko'plab amaliy taxlillar keltiriladi.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash suv resurslarining XXI asrga borib tanqisligi yuzaga kelishi hamda bu global iqtisodiy muammo aylanishi haqida ko'plab rasmiy statistik materiallar taxlili olib boriladi[5]. L.Revenko o'zining "Oziq-ovqat xavfsizligi: yechimini topish imkoni mavjud" rasmiy maqolasida jahon sahnasida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha asosan tashqi oqimlar ya'ni mamlakatlar ishlab chiqarish salohiyati va imkoniyatiga bog'liq holda taqsimlash masalasini ko'tarib chiqadi[6]. oziq – ovqat xavfsizligini ta'minlashda, eng avvalo qishloq xo'jaligiga hamda oziq- ovqat xavfsizligi va oziq – ovqat mahsulotlariga oid 13 ta qonun, davlatning 17 ta farmoni va 81 ta qarori, xukumatimizning 134 ta qaror hamda 6 ta yangi idroviy normativ – huquqiy xujjatlar qabul qilingan. Buning asosida ishlab chiqarishning qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirovchilarning iqtisodiy va moliyaviy barqarorligini ta'minlashga, oziq – ovqat xavfsizligini mustahkamlashga, agrar sektorning eksport salohiyatini oshirishga, shuningdek, sahada davlat aralashuvini kamaytirishga xizmat qiladi.

Shundan kelib chiqqan holda quyidagi raqatlarga qaratmoqchiman. 19 million tonna meva – sabzavot, shundan, 10,2 mln. tonna sabzavot, 2,6 mln: tonna meva, 1,6 mln: tonna uzum, 2,1 mln: tonna poliz, 2,5 mln: tonna kartoshka hamda 594 ming tonna dukkakli, moyli ekinlar va 225 ming tonna sholi yetirishirilgan. Agar sohada tashqi savdo faoliyatini erkinlashtirish natijasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti hajmida o'sishga erishildi.Masalan: 2016 yilda 560 million dollarlik qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksport qilingan bo'lsa, 2019 yil yakuniy bo'yicha uning xajmi 2,3 marta oshib 1,3 mlrd, dollarni tashkil etgan [7].

Bugungi kunda, tahlil va natijalar shuni ko'rsatmoqdagi, O'zbekiston aholisining ko'payib borayotgani, urbanizatsiya jarayonlarining kuchayib borishi sharoitida qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining qisqarib borishi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va aholining ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini kengaytirish masalasini yildan-yilga keskin qilib qo'ymoqda [8].

AQShning izlanishlar markazi o'tkazgan tadqiqotga ko'ra, O'zbekiston oziq - ovqat xavfsizligi reytingida dunyoda 64-o'rinni egalladi[9]

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yer maydonlari 1990 yildagi 28080,4 ming gektardan 2015 yilda 25621,6 ming gektarga, ya'ni -2458,8 ming gektarga, shunga mos ravishda haydaladigan yer maydonlari 4176,5 ming gektardan 4043,6 ming gektarga, ya'ni -132,9 ming gektarga, sug'oriladigan yerlar 3407,3 ming gektardan 3288,2 ming gektarga, ya'ni - 119,1 ming gektarga, qishloq xo'jaligi ekin maydonlari esa 4200,1 ming gektardan 3694,2 ming gektarga, ya'ni -505,9 ming gektarga qisqardi[10]. Bu esa O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning dolzarb ahamiyatga molik ekanligidan dalolat beradi. Aytish lozimki, Sobiq Ittifoq tanazzulga uchragan o'sha davrda, ya'ni 1989 yilda o'tkazilgan statistik tadqiqotlar ma'lumotlariga ko'ra, iste'mol bozorida aholi uchun zarur bo'lgan barcha mahsulotlarning qariyb 95 foizi bo'yicha uzilishlar bo'lib turgan va bu sobiq Ittifoq hududida kundalik asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini aholiga kartochkalar orqali sotish tizimini joriy etishga sabab bo'lgan edi. 1989 yilda respublika statistika organlari tomonidan yurtimiz aholisi o'rtasida o'tkazilgan rasmiy so'rovlarda qatnashganlarning 89,3 foizi go'sht mahsulotlarini yetarli darajada iste'mol qilmayotganini aytgan. Bu ko'rsatkichlar sut mahsulotlari bo'yicha 56,5 foizni, shakar bo'yicha 55,3 foizni, qandolat mahsulotlari bo'yicha 49,5 foizni, qartoshka bo'yicha esa 17,5 foizni tashkil etdi[11].

Ushbu raqamlar mustaqillik ostonasida respublikamizda oziq-ovqat xavfsizligiga kuchli tahdidlar mavjud bo'lganligini, respublika oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga o'zi qodir bo'lmay qolganligini ko'rsatadi. Shuning uchun ham mustaqillik qo'lga kiritilganidan so'ng oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hayot-mamot masalasiga aylandi. Respublikamiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida tub agrar islohotlar asosida qishloq xo'jaligi ekinlari strukturasini qayta ko'rib chiqish va takomillashtirishga yo'naltirilgan strategiya amalga oshirildi.

Shu jumladan, mamlakatimizda don mustaqilligini qo'lga kiritishga qaratilgan Dasturining amalga oshirilishi katta ijtimoiy- iqtisodiy va siyosiy ahamiyat kasb etdi. Agar 1990 yilda ekin maydonlarining yarmidan ko'prog'ini texnika ekinlari, shu jumladan, paxta maydonlari tashkil etgan bo'lsa, 2016 yilga kelib, ularning maydonlari 35,1% ga qisqartirildi. Shu bilan bir vaqtda don ekinlari maydonlarining ulushi umumiy ekin maydonlarining 24%dan 45,2%ga oshirildi ma'lumotlari ko'rsatmoqdaki 2016 yilda 1990 yilga nisbatan kartoshka ekin maydonlarining

ulushi 2,3 barobarga, sabzavot 3,2 %dan 5,3%ga, o'sgan. Shu bilan birga ozuqa ekin maydonlari ulushi 14,8%dan 8,9%ga kamaygan[12]. Mamlakatimizda qishloq xo'jaligini bosqichma-bosqich isloh etish va diversifikatsiya qilish natijasida mustaqillik yillarida don mustaqilligi qo'lga kiritildi, ozuqabop qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish keskin o'sdi. 2017 yilda 1991 yilga nisbatan don mahsulotlari yetishtirish esa 4,2 barobardan ziyodga, kartoshka yetishtirish 847,5% ga, mevalar 595,5% ga, uzum 363,9%ga, sabzavot mahsulotlari 343,9%ga, poliz ekinlari 226,2%ga ko'paydi.

Shu bilan birga paxta xom-ashyosi ishlab chiqarish hajmi 37,6%ga kamaydi. Uning qishloq xo'jalik mahsulotlarining umumiy hajmidagi ulushi 47,7%dan 11%ga qisqardi[13]. Ta'kidlash lozimki, hukumatimiz tomonidan mamlakatimizda ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini va dehqon xo'jaliklarini rivojlantirish borasida amalga oshirigan chora-tadbirlari dehqonchilik sohasida qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlari hajmi va ularning ulushlari o'sishiga erishildi. Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, urug'chilikni yaxshilash borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligi oshirildi. Don ekinlarining o'rtacha hosildorligi gektariga 1991 yildagi 17,3 sentnerdan 2016 yilda 45 sentnerga, shunga muvoviq ravishda bug'doy hosildorligi 11,8 sentnerdan 47,9 sentnerga, kartoshka 87 sentnerdan 225,1 sentnerga, sabzavot 188 sentnerdan 271,1 sentnerga, poliz mahsulotlari hosildorligi 106 sentnerdan 209,4 sentnerga. meva va rezavorlar 36,7 sentnerdan 134,5 sentnerga, uzum 50,9 sentnerdan 142,3 sentnerga o'sdi[14]. 2016 yilda 2000 yilga nisbatan aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan jami don mahsulotlari 159 kg. dan 259 kg. ga, kartoshka 3 barobardan ziyodga, sabzavotlar 3,4 barobarga, poliz mahsulotlari 3,5 barobardan ziyodga, mevalar ham 3 barobarga, uzum 2,2 barobarga, go'sht 2 barobarga, sut 2 barobardan ziyodga va 3,8 barobarga yaqin o'sgan. Aholi jon boshiga asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining o'sishi ularning Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va O'zbekiston respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilangan ratsional iste'mol meyorlariga nisbatan birmuncha yaqinlashishiga, non va non mahsulotlari, sabzavotlar hamda o'simlik yog'i bo'yicha esa oshib ketishiga olib keldi.

Jumladan, aholi jon boshiga non va non mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi iste'molning JSST ratsional meyorlariga nisbatan 206,3%ni, O'zR SSV meyorlariga nisbatan 192,7%ni, poliz va sabzavotlar ishlab chiqarish iste'molning mos ravishda 249,6% va 261%ni tashkil etdi. shuni aytish lozimki, mustaqillik yillarida, ya'ni 2016 yilda 1990 yilga nisbatan aholi jon boshiga iste'mol qilish go'sht va go'sht mahsulotlari 38,7% ga, sut mahsulotlari 45,6 % ga, tuxum 2,4 martaga yaqin, sabzavot va poliz mahsulotlarisalkam 2,7 martaga, kartoshka salkam 2 martaga, meva va uzum 6,3 martaga o'sdi[15]. O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, asosiy

turdagi oziq-ovqat mahsulotlari zahiralarning yaratilishi tufayli ratsional meyorlar darajalari bo'yicha iste'mol darajasiga erishish borasida katta ishlar amalga oshirilgan.

Shu boisdan 2015 yilda mamlakatimiz Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ga a'zo davlatlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash sohasida Mingyillik rivojlanish maqsadlariga erishgani uchun beriladigan mukofotiga sazovor bo'lgan 14 ta davlatdan biri sifatida e'tirof etildi. Ratsional meyorlar darajasida asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining iste'moliga erishish uchun qishloq xo'jaligini, oziq-ovqat va qayta ishlash sanoat tarmoqlarini jadal rivojlantirish, aholining iste'mol madaniyatini yanada oshirish talab etiladi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash mexanizmi uchta muhim jabhani, ya'ni agrosanoat majmuasida oziq-ovqat ishlab chiqarishni tartibga solish va rag'batlantirish, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga erishishini va iste'molini ta'minlash va bu boradagi imkoniyatlarini oshirish hamda oziq-ovqat xavfsizligini boshqarishni tashkil etish tizimini takomillashtirib borish bo'yicha dastak va chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Bizningcha, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash mexanizmi agrosanoat majmuasida oziq-ovqat ishlab chiqarishni tartibga solish va rag'batlantirish sohasida quyidagi dastak va chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi:

(oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qonuniy, huquqiy-meyoriy asosini vujudga keltirish va takomillashtirib borish;

- budjet-soliq vositalari orqali oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirishni rag'batlantirish. Bunda soliq imtiyozlari, dotatsiya va subvensiyalar berish nazarda tutiladi;

- pul-kredit siyosati dastaklari vositasida oziq-ovqat ishlab chiqarishni rag'batlantirish. Bunda imtiyozli kreditlash tizimining joriy etilishi nazarda tutiladi;

- oziq-ovqat eksporti va importini bojxona tariflari va tarifsiz tartiblash. Bunda mamlakatda ishlab chiqarilmaydigan yoki kam miqdorda ishlab chiqariladigan oziq-ovqat mahsulotlarini import qilishni hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilarning oziq-ovqat, shu jumladan, qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini eksporti faoliyatini bojxona tariflari yoki tarifsiz tartibga solish va rag'batlantirish chora-tadbirlari amalga oshiriladi;

- Agrosanoat majmuasi (ASM) tarmoqlariga investitsiyalar kiritishni rag'batlantirish. Bunda agrosanoat majmuasi tarmoqlariga, jumladan, qishloq va baliqchilik xo'jaligi, suv xo'jaligi, oziq-ovqat sanoati tarmoqlariga ichki va xorijiy investitsiyalarni kiritishni, mamlakat mintaqalarida, erkin agrar iqtisodiy zonalar, qishloq xo'jaligi klasterlarini tashkil etishni rag'batlantirish, ularni rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish chora-tadbirlari amalga oshiriladi;

- oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqaruvchilarini qo'llab-quvvatlash. Bunda qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarini,

korxonalarni, oziq-ovqat sanoati korxonalarini qo'llab-quvvatlanadi va ular faoliyatini rag'batlantiriladi. O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlarini yanada ko'paytirish va o'sish sur'atlarini jadallashtirish, yuksak ishlab chiqarish samaradorligiga erishishda xorijiy mamlakatlarning amaliy tajribalarini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Markaziy Osiyoda kartoshka iste'moli aholi jon boshiga yillik 52,6 kg ni tashkil etadi, shuning uchun, unga nisbatan "ikkinchi non" iborasi qo'llaniladi. Qolaversa, kartoshka oziq-ovqat xavfsizligi, to'yimligi va daromad olish uchun eng katta salohiyatga ega asosiy ekin turi hisoblanadi.

Shuni a'loxida ta'kidlab o'tish lozimki, O'zbekistonda Meva-sabzavotchilik quyi tarmog'i O'zbekiston qishloq xo'jaligining muhim tarmog'i hisoblanadi. Bu tarmoq mamlakat aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga, qayta ishlash sanoati tarmoqlarining esa xomashyoga bo'lgan talabini qondiradi. Meva-sabzavotchilik O'zbekiston uchun jahon agrar va oziq-ovqat bozorlariga integratsiyalashuvni va valyuta tushumini ta'minlab beruvchi tarmoqlardan biri hisoblanadi. Keyingi yillarda respublikamizda meva-sabzavotchilikni keng ko'lamda rivojlantirishga davlat tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 9 yanvardagi "Meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-3709-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 11 yanvardagi "Meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasini isloh qilish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-255 sonli qaroriga asosan meva-sabzavotchilik tarmog'ini boshqarish tizimi tubdan takomillashtirildi. Mamlaktimizda bog'dorchilikni rivojlantirishga davlat darajasida e'tibor qaratilib, butunlay yangi intensiv texnologiyaga asoslangan bog'lar barpo etilmoqda. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti bu masalaga o'z e'tiborlarini qaratib, quyidagicha fikr bildirib o'tgan edi: "Yangi bog' va uzumzorlar barpo etish borasida amalga oshirilayotgan ishlarga alohida to'xtalib o'tmoqchiman. 2010-2014 yillar davomida qariyb 50 ming gektar maydonda yangi bog'lar, jumladan, 14 ming gektardan ortiq maydonda intensiv bog'lar, 23 ming gektarda uzumzorlar yaratildi. Intensiv bog'lar tashkil etish uchun Polsha, Serbiya va boshqa mamlakatlardan 6 milliondan ziyod ko'chat olib kelindi[16] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 28 yanvardagi 03-13-1-sonli "Respublikadagi meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan tumanlarda 2014 yilda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish, ularni qayta ishlashni salmog'ini, eksport hajmini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi yig'ilishi qarori asosida aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash, qayta ishlash, eksport hajmlarini ko'paytirish, ichki bozordagi narx-navolar barqarorligini ta'minlash maqsadida respublikadagi meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan tumanlarda meva-sabzavot, uzum, poliz va kartoshka mahsulotlarni ishlab chiqarish ko'paytirishni, yangi intensiv mevali bog'lar barpo

loyihalarini amalga oshirish koʻzda tutilgan. Respublikamizda meva-sabzavotchilikni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar natijasida bu sohaga ixtisoslashgan 30 ta tumanda meva-sabzavotlar hajmini keskin oshirish koʻzda tutilgan. Jumladan, 2014 yil 2013 yilga nisbatan sabzavot yetishtirish hajmi 2867,1 ming tonnadan 4075,1 ming tonnaga yoki 142,0 %ga, poliz 175,5 ming tonnadan 244,6 ming tonnaga yoki 139,0 %ga, kartoshka 840,8 ming tonnadan 1184,2 ming tonnaga yoki 141,0 %ga, meva 732,4 ming tonnadan 1043,4 ming tonnaga yoki 142,0 %ga va uzum 560,1 ming tonnadan 754,2 ming tonnaga oshishi rejalashtirilgan. Respublikamizda meva-sabzavotchilikni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar natijasida “2020 yilda meva va sabzavot, uzum va poliz mahsulotlari yetishtirishni 2014 yilga nisbatan kamida 2,3 martaga koʻpaytirishni moʻljallayapmiz”. Bu tadbirlarning amalga oshirilishi nafaqat meva-sabzavot mahsulotlari bilan ichki isteʼmolni qondirish, balki qayta ishlash va eksportga chiqarish imkonini ham yaratadi. Yetishtirilgan mahsulotlarning qolgan qismi urugʻlikka, qayta ishlashga va eksportga taqsimlanadi. Jumladan, 2014 yilda esa sabzavotlarning 15,8, mevaning 20,8 va uzumning 24,8 %i qayta ishlashga yoʻnaltirilgan. Hoʻl meva-sabzavotlarning jami miqdorida eksportning ulushi past darajada qolib kelmoqda. Masalan, 2012 yilda yetishtirilgan sabzavotlarning 2,6, mevaning 7,7 va uzumning 6,9 %i eksportga chiqarilgan boʻlsa, 2014 yilda bu koʻrsatkichlar sabzavotlar boʻyicha 2,4, meva boʻyicha 3,7 va uzum boʻyicha 7,3 %ni tashkil etgan. Koʻrinib turibdiki, 2014 yilda 2012 yilga nisbatan jami mahsulotlar tarkibida eksportning ulushi sabzavotlarda 0,2, mevada 4,0 va uzumda 0,4 %ga qisqargan. Bunga asosiy sabab respublikamizda xomashyoni chuqur qayta ishlash asosida yuqori qoʻshilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar eksportini oshirishga katta eʼtibor qaratilmoqda va meva-sabzavotlarni qayta ishlash darajasi sezilarli oshib bormoqda.. Oʻzbekistondan jahon bozorlariga eksport qilinayotgan meva-sabzavot va poliz mahsulotlari ichida eng salmoqli oʻrinni sabzavotlar va mevalar egallaydi [16].

Xulosa. Xulosa oʻrinda shuni alohida qayd etish mumkinki respublikamizda oziq-ovqat xavfsizligiga kuchli tahdidlar mavjud boʻlganligini, respublika oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlashga oʻzi qodir boʻlmay qolganligini koʻrsatadi. Shuning uchun ham mustaqillik qoʻlga kiritilganidan soʻng oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlash hayot-mamot masalasiga aylandi. Respublikamiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlash maqsadida tub agrar islohotlar asosida qishloq xoʻjaligi ekinlari strukturasi qayta koʻrib chiqish va takomillashtirishga yoʻnaltirilgan strategiya amalga oshirildi. Oʻzbekistonda aholini oziq – ovqat mahsulotlari bilan taʼminlash masalalari bugungi kunda dolzarb masalalariga aylanib qolganligin kurishmiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxsti:

1. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: «O'zbekiston», 2011. -12- 13-b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy majlisga murojatnomasi. 2018 yil 28 dekabr ma'ruzasi. "Xalq so'zi" № 271-272 sonli 2018 yil 29 dekabr.
3. Jonixonov M., Rahmonov S. Oziq-ovqat dasturi: mamlakat taraqqiyoti, iqtisodiyot barqarorligi va farovonlikning mustahkam asosi. //Xalq so'zi, 2014 yil 7iyun.
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. //Xalq so'zi, 2016 yil 15 dekabr.
5. Zerkalov D.V. Prodovolstvennaya bezopasnost [Elektronniy resurs]: Monografiya D. V. Zerkalov. – Elektron. danniyе. – K. : Osnova, 2009.
6. Liliya Revenko. Prodovolstvennaya bezopasnost: resheniye vozmojno. https://mgimo.ru/files/226753/2012-09_interaffairs_Revenko.pdf.
7. O'MDA. Fond m- 165 ruyxat -1, yig'ma jild-17, b-22
8. Fond-m-165, ro'yxat-1 yig'ma jild-17, bet124.
9. <https://daryo.uz/k/2018/04/30/ozbekiston-oziq-ovqat-xavfsizligi-reytingidadunyoda-64-orinni-egalladi>.
10. <https://daryo.uz/k/2018/04/30/ozbekiston-oziq-ovqat-xavfsizligi-reytingidadunyoda-64-orinni-egalladi>.
11. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendensiya va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlari: statistik to'plam. –T.: O'zbekiston, 2011. 85-86-betlar.
12. O'zbekiston respublikasi yillik statistik to'plam. — Toshkent: «Uzbekistan» 2011. — 45-bet; Statisticheskii yеjеgodnik Respubliki Uzbekistan. — Tashkent, 2013. — S.226, 246–248; O'zbekiston qishloq xo'jaligi. 2016 yil statistik to'plam. –T., 2017.-23-bet
13. O'zbekiston Respublikasi yillik statistik to'plami.-T.,2013.227-bet; O'zbekiston hudud-larining yillik statistik to'plami.-T.,2014.87-88-betlar;
14. Almanax Uzbekistana 2013god. – T., 2013.-S.113; O'zbekiston qishloq xo'jaligi 2016 yil. Stat.to'plam. –T.,2016. –B. 27-28; O'zbekiston hududlarining yillik statistik to'plami. 2016yil.-T.,2017.-107-108-betlar
15. Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy

mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. – T.: O‘zbekiston, 2015.

16 .Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: «O‘zbekiston», 2011. -12- 13-b.